

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, Jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash raisi



_____ **Sh.A. Ayupov**

2026-yil “___” sentyabr

**Jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash majlisining
3-son BAYONNOMASI**

2-sentyabr 2026-yil

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Sh.A. Ayupov – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, Jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash raisi.

Qatnashdilar:

Kengash a‘zolari, taklif etilganlar (*ro‘yxat bo‘yicha*);

majlisda Kengashning barcha a‘zolari ishtirok etdi. Kengash majlisi vakolatli hisoblanadi.

KUN TARTIBI:

Reagent, reaktiv, xomashyo, sarflov materiallar va butlovchi qismlarni xarid qilishga mablag‘ ajratish tartibiga muvofiq kelib tushgan hujjatlarni ko‘rib chiqish to‘g‘risida.

(Ayupov, Ashurov, Jo‘raboyev ... Ayupov)

KUN TARTIBIDAGI MASALA BO‘YICHA:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-maydagi 260-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining jamg‘armasi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq Jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash (keyingi o‘rinlarda – Kengash)ning 2026-yil 14-iyuldagi 1-son yig‘ilish bayoniga 2-ilova bilan tasdiqlangan “Reagent, reaktiv, xomashyo, sarflov materiallar va butlovchi qismlarni xarid qilishga mablag‘ ajratish tartibi” (keyingi o‘rinlarda – Tartib) va Fanlar akademiyasi prezidentining 2026-yil 3-avgustdagi 19-105-son buyrug‘i,

tizim tashkilotlarining ariza va buyurtmanoma paketlari, tashkilotlar Ilmiy kengashlari qarorlari, Kimyo-biologiya fanlari bo'limi hamda Fizika-matematika va texnika fanlari bo'limi ilmiy-texnik kengashlari (keyingi o'rinlarda - ITK) bayonnomalari Kengash majlisida o'zaro solishtirilgan holda ko'rib chiqildi.

Tartibning 4, 12–18-bandlariga ko'ra buyurtmachi va uning mas'ul shaxslari ehtiyojni o'z vaqtida aniqlash, boshlang'ich narxni asoslash, hujjatlarning haqqoniyligi, ishonchliligi va to'liqligini ta'minlashga mas'ul deb belgilangan.

Shuningdek, buyurtmanoma kamida ikkita dastlabki tijorat taklifi, raqobat varaqasi va Tartibning 2 yoki 3-ilovasi shaklidagi ro'yxat bilan shakllantirilishi, shakllangan buyurtmanoma tashkilot ilmiy kengashida ko'rib chiqilib, ma'qullanganidan keyin umumlashtirilgan ariza shakllantirilishi lozim.

Tartibning 24–25-bandlariga muvofiq ITK xulosasi Kengash qarori uchun asos hisoblanadi.

ITK har bir ariza bo'yicha:

xaridning ilmiy faoliyat va tadqiqot dasturlari bilan bog'liqligi;

ehtiyojning asoslanganligi;

tijorat takliflari va ularning taqqoslanishi;

boshlang'ich narx va so'ralayotgan mablag' hajmi;

xarid predmetining Tartibga muvofiqligi;

kutilayotgan ilmiy-amaliy natijalarni baholashi belgilangan.

Tartibning 28-bandiga muvofiq belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ITK xulosasi Kengash muhokamasiga kiritiladi.

Kimyo-biologiya fanlari bo'limi bo'yicha 11 ta va Fizika-matematika va texnika fanlari bo'limi bo'yicha 2 ta - jami 13 ta tashkilotning arizalari bo'yicha so'ralgan mablag' 13 869 336 880 (*o'n uch milliard sakkiz yuz oltmish to'qqiz million uch yuz o'ttiz olti ming sakkiz yuz sakson*) so'mni tashkil etadi.

Materialshunoslik instituti va Yadro fizikasi instituti bo'yicha tijorat takliflari yetarli emasligi Fizika-matematika va texnika fanlari bo'limi ITK bayonnomasida qayd etilganligi sababli mazkur ikki tashkilot arizalari rad etilgan.

Shundan so'ng, ariza va ITKlar xulosalari MUHOKAMA QILINDI:

Kengash a'zolari tomonidan taqdim etilgan materiallarni ko'rib chiqish jarayonida ariza va buyurtmanoma hujjatlarini rasmiylashtirish, yakuniy buyurtmanomani ilmiy kengashda ko'rib chiqish ketma-ketligi, boshlang'ich narxni asoslash, tijorat takliflarini taqqoslash, yetkazib beruvchilarning o'zaro affillanganligi, valyuta konvertatsiyasi, hujjatlar xronologiyasi va hisob-kitoblar bo'yicha **barcha tashkilotlarda** qayta ishlashni talab etadigan holatlar mavjud.

Shuningdek, Kimyo-biologiya fanlari bo'limi hamda Fizika-matematika va texnika fanlari bo'limi ITK xulosalarida Tartibning 25-bandida belgilangan

baholash mezonlari har bir tashkilot kesimida yetarlicha ochib berilmagani, moliyalashtirishga tavsiya etilayotgan aniq mablag' miqdorlari ko'rsatilmagani hamda manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha tegishli qaydlar mavjud emasligi Kengash a'zolari tomonidan qayd etildi.

Kengash a'zolari Tartib talablaridan kelib chiqib, moliyalashtirish bo'yicha **yakuniy qaror qabul qilishdan oldin** ITK xulosalarini har bir tashkilot kesimida asoslangan holda qayta rasmiylashtirish lozimligi qayd etildi.

Kamchiliklarni bartaraf etish natijasida hujjatlarga o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritilgan hollarda yangilangan buyurtmanoma avvalo tegishli tashkilot **ilmiy kengashida qayta ko'rib chiqilib, ma'qullangandan so'ng ITK muhokamasiga kiritilishi** lozimligi belgilandi.

Taqdim etilgan materiallarning hozirgi holatida Kimyo-biologiya fanlari bo'limi hamda Fizika-matematika va texnika fanlari bo'limi ITK xulosalari Tartibning 25-bandida belgilangan baholash mezonlari bo'yicha har bir tashkilot kesimida to'liq asoslanmagan, tavsiya etilayotgan aniq mablag' miqdorlari tegishli ilovalarda ko'rsatilmagan.

Shu sabab moliyalashtirish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilishdan oldin ITK bayonnomalari va xulosalarini qayta ishlash, mazmuniy nomuvofiqliklarga ega arizalarni tegishli ITKda qayta baholash maqsadga muvofiq.

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida Kengash raisi o'rinbosari **X.B. Ashurov** U.A. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutiga, Kengash a'zolari **T.U. Aripova** Immunologiya va inson genomikasi institutiga, **K.Sh. Tojibayev** Botanika institutiga, **Sh.M. Miralimova** Mikrobiologiya institutiga, **I.I. Sadikov** Yadro fizikasi institutiga oid masalalarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmadi.

Kun tartibidagi masalani ko'rib chiqib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Kimyo-biologiya fanlari bo'limi bo'yicha 11 ta hamda Fizika-matematika va texnika fanlari bo'limi bo'yicha 2 ta - jami 13 ta tashkilot tomonidan taqdim etilgan arizalar ko'rib chiqilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorning 1-bandida ko'rsatilgan 13 ta tashkilotning ariza va buyurtmanoma hujjatlari Kengash muhokamasida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun qayta ishlashga qaytarilsin.

3. Kamchiliklarni bartaraf etish natijasida hujjatlarga o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritilgan hollarda yangilangan buyurtmanoma tegishli tashkilot ilmiy kengashida qayta ko'rib chiqilib, ma'qullangandan so'ng ITK muhokamasiga kiritilsin.

4. Mazkur yig'ilish bayonnomasi bilan belgilangan topshiriqlar bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bayonni tuzuvchi:
Kengash kotibi
M. Nazirov